

**KONSTRUKTIVISTIK YONDASHUV ASOSIDA O‘ZBEK TILI DARSLARIDA
TALABALARNING MA’NAVİY-AXLOQIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA
YO‘NALTIRILGAN TA’LIM MODELINING SAMARADORLIGI**

Shermatova Dिल्фуза Yakubjanovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.,(PhD) dotsent

Namangan davlat texnika universiteti.

E-mail: shermatovadilfuza57@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18827417>

Annotatsiya. Mazkur maqolada konstruktivistik yondashuv asosida o‘zbek tili darslarida talabalarining ma‘naviy-axloqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim modelining samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy oliy ta‘lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalarining mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas‘uliyati va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilib, tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy-statistik tahlil qilindi.

Ishlab chiqilgan ta‘lim modeli muammoli vaziyat yaratish, interfaol metodlardan foydalanish, matn asosida axloqiy tahlil tashkil etish hamda refleksiv faoliyatni yo‘lga qo‘yishga asoslandi. Tadqiqot natijalari konstruktivistik yondashuv talabalarining axloqiy tushunchalarni anglash darajasi, mustaqil va tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy faolligi hamda qadriyatlarga ongli munosabatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar mazkur modelni o‘zbek tili ta‘limi jarayoniga keng joriy etish hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida qo‘llash istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: konstruktivistik yondashuv, o‘zbek tili ta‘limi, ma‘naviy-axloqiy kompetensiya, pedagogik model, interfaol metodlar, refleksiv ta‘lim.

Аннотация. В данной статье анализируется эффективность образовательной модели, направленной на развитие духовно-нравственных навыков учащихся на уроках узбекского языка, основанной на конструктивистском подходе, с научной, теоретической и практической точек зрения. Актуальность исследования объясняется необходимостью внедрения личностно-ориентированных педагогических технологий в современную систему высшего образования, развития у учащихся самостоятельного мышления, социальной ответственности и моральных компетенций. В ходе исследования была проведена педагогическая экспериментальная и тестовая работа, а результаты экспериментальной и контрольной групп были проанализированы сравнительно и статистически.

Разработанная образовательная модель основана на создании проблемной ситуации, использовании интерактивных методов, организации текстового морального анализа и формировании рефлексивных заданий. Результаты исследования показали, что конструктивистский подход значительно повышает уровень понимания учащимися моральных понятий, самостоятельного и критического мышления, социальной активности и осознанного отношения к ценностям.

Полученные результаты подтверждают перспективный потенциал данной модели для широкого внедрения в процесс обучения узбекскому языку и ее применения в других социально-гуманитарных дисциплинах.

Ключевые слова: конструктивистский подход, преподавание узбекского языка, духовно-нравственная компетентность, педагогическая модель, интерактивные методы, рефлексивное образование.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of the educational model aimed at developing students' spiritual and moral skills in uzbek language lessons based on the constructivist approach from a scientific, theoretical and practical perspective. The relevance of the study is explained by the need to introduce personally oriented pedagogical technologies in the modern higher education system, develop students' independent thinking, social responsibility and moral competencies. During the research, pedagogical experimental and test work was carried out, and the results of the experimental and control groups were analyzed comparatively and statistically.

The developed educational model was based on creating a problem situation, using interactive methods, organizing a text-based moral analysis and establishing reflexive activities.

The results of the study showed that the constructivist approach significantly increases students' level of understanding of moral concepts, independent and critical thinking, social activity and a conscious attitude to values.

The results obtained confirm the promising potential of this model for widespread implementation in the process of uzbek language education and its application within other social and humanitarian disciplines.

Keywords: constructivist approach, uzbek language education, spiritual and moral competence, pedagogical model, interactive methods, reflexive education.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning intellektual salohiyati bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi yosh avloddan mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, mas'uliyatli qaror qabul qilish hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqlikni talab etmoqda.

O'zbek tili fanining mazmuni va imkoniyatlari talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik maydon yaratadi. Badiiy va publitsistik matnlar, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi asarlar, nutqiy vaziyatlar hamda muammoli topshiriqlar orqali talabalarda axloqiy tafakkur, ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy pozitsiya shakllanadi. Biroq an'anaviy o'qitish usullarida talaba ko'proq tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi, bu esa uning ichki faolligi va mustaqil fikrlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu bois ta'lim jarayoniga konstruktivistik yondashuvni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Konstruktivizm nazariyasining asoschilari sifatida e'tirof etiladigan Jean Piaget bilimning individual tajriba asosida shakllanishini asoslab bergan bo'lsa, Lev Vygotsky bilimning ijtimoiy hamkorlik va muloqot jarayonida rivojlanishini ilmiy jihatdan izohlab bergan. Ularning nazariy qarashlariga ko'ra, ta'lim jarayoni talabaning faol ishtiroki, muammoli vaziyatlarni hal etishi va refleksiv fikrlashi orqali samarali kechadi.

Konstruktivistik yondashuvda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki o'quv faoliyatini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Talaba esa bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki o'z tajribasi, muloqoti va tahlili asosida uni mustaqil ravishda "quradi".

Aynan shu jarayon ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi, chunki axloqiy qarashlar ham tayyor qoidalarni yodlash orqali emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozara va shaxsiy pozitsiyani asoslash orqali shakllanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — konstruktivistik yondashuv asosida ishlab chiqilgan ta'lim modelining o'zbek tili darslarida talabalarning ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari konstruktivistik yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish; O'zbek tili darslarida ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish omillarini aniqlash; maxsus ta'lim modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; Tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish va samaradorlik darajasini aniqlash; tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish va samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o'zbek tili ta'limi jarayonida konstruktivistik metodlar asosida ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning yaxlit modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi tajriba-sinov asosida asoslab berildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kvazi-eksperimental (quasi-experimental) dizayn asosida tashkil etildi.

Tadqiqotda tajriba va nazorat guruhleri ishtirok etdi hamda ular o'rtasidagi natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot 2025–2026-o'quv yili davomida oliy ta'lim muassasasining 1-bosqich talabalarida olib borildi. Tadqiqotda jami 60 nafar talaba ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlash usuli orqali 2 guruhga ajratildi: tajriba guruhi — 30 nafar talaba, nazorat guruhi — 30 nafar talaba.

Har ikkala guruhning boshlang'ich bilim darajasi va ma'naviy-axloqiy ko'rsatkichlari diagnostik testlar yordamida aniqlanib, ularning o'rtacha ko'rsatkichlari o'zaro yaqin ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot 3 bosqichda amalga oshirildi: **diagnostik bosqich** – talabalarning ma'naviy-axloqiy ko'nikmalari darajasi aniqlashtirildi; **tajriba bosqichi** – tajriba guruhida konstruktivistik model asosida darslar tashkil etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar qo'llanildi, **nazorat (yakuniy) bosqichi** – natijalar qayta o'lchandi va statistik jihatdan tahlil qilindi.

Ishlab chiqilgan konstruktivistik ta'lim modeli **motivatsion component, kognitiv component, faoliyat komponenti, refleksiv komponent** tarkibiy komponentlardan iborat.

Motivatsion component – muammoli vaziyat yaratish orqali talabani faol fikrlashga jalb etish. **Kognitiv component** – matn asosida axloqiy tushunchalarni tahlil qilish. **Faoliyat komponenti** – guruhli ishlash, bahs-munozara, rol o'ynash. **Refleksiv component** – o'z fikrini baholash va xulosa chiqarish.

Tajriba guruhida "Aqliy hujum", Klaster usuli, Keys-stadi (axloqiy dilemmalarni tahlil qilish), Rol o'ynash texnologiyasi, Debat va munozara interfaol metodlar qo'llanildi. Mazkur metodlar konstruktivizm nazariyasining asoschilari bo'lgan Jean Piaget va Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan faol o'rganish va ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga asoslandi. Nazorat guruhida esa ma'ruza, tushuntirish va savol-javob metodlari asosida an'anaviy darslar olib borildi.

Talabalarining ma'naviy-axloqiy ko'nikmalari axloqiy tushunchalarni anglash darajasi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmasi, ijtimoiy faollik darajasi, qadriyatlarga ongli munosabatmezonlar asosida baholandi. Har bir mezon 3 daraja (past, o'rta, yuqori) asosida 100 ballik tizimda baholandi.

Olingan natijalar foiz ko'rsatkichlari va o'rtacha arifmetik qiymatlar asosida tahlil qilindi.

Guruhlar o'rtasidagi farq ishonchligi Student t-mezoni yordamida aniqlanib, $p<0,05$ darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

Natijalar

Tajriba boshida har ikki guruhning ko'rsatkichlari deyarli teng bo'lib, ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar asosan o'rta darajada ekanligi aniqlandi. Tajriba yakunida esa sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.

1. Axloqiy tushunchalarni anglash

Daraja	Tajriba guruhi (boshlang'ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Yuqori	20%	63%	38%
O'rta	50%	30%	44%
Past	30%	7%	18%

Natijalar tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkich 43% ga oshganini ko'rsatdi.

2. Mustaqil va tanqidiy fikrlash

Tajriba guruhida mustaqil fikr bildirish ko'nikmasi 42% dan 79% ga ko'tarildi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 58% ni tashkil etdi. Talabalar muammoli vaziyatlarda o'z pozitsiyasini asoslab bera olish darajasi sezilarli darajada oshdi.

3. Ijtimoiy faollik

Tajriba guruhida guruhli ishlarda faol ishtirok etish, bahs-munozaralarda qatnashish ko'rsatkichlari 76% ga yetdi (boshlang'ich 45%). Nazorat guruhida esa o'sish 55% darajasida bo'ldi.

4. Qadriyatlarga ongli munosabat

Tajriba guruhida talabalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan fikr yuritish ko'rsatkichlari 2 baravar oshdi. Refleksiya natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar axloqiy masalalarni shaxsiy tajribasi bilan bog'lab tahlil qilishni o'rgangan.

Student t-mezoni asosida o'tkazilgan tahlil tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ($p<0,05$) ko'rsatdi. Bu konstruktivistik modelning samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, natijalar konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan o'zbek tili darslari talabalarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan o'zbek tili darslari talabalarining ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar nazariy jihatdan konstruktivizm konsepsiyasining asosiy tamoyillari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ldi.

Konstruktivistik nazariyaga ko'ra, bilim tayyor shaklda uzatilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol ravishda quriladi. Bu g'oya ilk bor kognitiv rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan Jean Piaget tomonidan asoslab berilgan.

Uning fikricha, shaxs bilimni o'z tajribasi asosida shakllantiradi. Tadqiqot jarayonida tajriba guruhida tashkil etilgan muammoli vaziyatlar va interfaol metodlar aynan talabani faol bilish jarayoniga jalb etgani sababli axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglashga olib keldi.

Shuningdek, ijtimoiy konstruktivizm vakili Lev Vygotsky ta'lim jarayonida ijtimoiy muloqot va hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlagan.

Tajriba guruhida qo'llanilgan bahs-munozara, rol o'ynash va keys-stadi metodlari talabalarning o'zaro fikr almashinuvi, ijtimoiy tajriba orttirishi hamda axloqiy qarorlarni jamoaviy muhokama qilishiga imkon yaratdi. Bu esa ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarning barqaror shakllanishiga xizmat qildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, konstruktivistik model: talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirdi; axloqiy dilemmalarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirdi; qadriyatlarga ongli munosabatni kuchaytirdi; ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissini oshirdi.

Ayniqsa, refleksiv faoliyat (dars yakunida o'z fikrini tahlil qilish va baholash) talabalarda o'z-o'zini anglash va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirgani kuzatildi. Bu holat ma'naviy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki axloqiy xulq tashqi nazoratdan ko'ra ichki e'tiqodga asoslanganida barqaror bo'ladi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, an'anaviy darslarda axloqiy tushunchalar ko'proq nazariy bayon etilgan bo'lsa, konstruktivistik modelda talabalar ushbu tushunchalarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa bilimning transfer (ko'chirish) darajasini oshirdi.

Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: ishtirokchilar soni nisbatan cheklangan (60 nafar); tadqiqot bir ta'lim muassasasi doirasida olib borilgan; vaqt oralig'i bir o'quv yili bilan chegaralangan.

Kelgusida tadqiqotni kengroq auditoriyada, turli hududiy va ijtimoiy sharoitlarda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman olganda, natijalar konstruktivistik yondashuv o'zbek tili ta'limida nafaqat lingvistik kompetensiyalarni, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda ham samarali pedagogik mexanizm ekanligini tasdiqladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot konstruktivistik yondashuv asosida ishlab chiqilgan ta'lim modelining o'zbek tili darslarida talabalarning ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy-empirik jihatdan asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari konstruktivistik metodlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning axloqiy tushunchalarni anglash darajasini sezilarli oshirdi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlandi, talabalarda muammoli vaziyatlarda asosli qaror qabul qilish qobiliyati shakllandi, ijtimoiy faollik va jamoaviy hamkorlik darajasi ortdi, qadriyatlarga ongli va shaxsiy pozitsiyaga asoslangan munosabat shakllandi, refleksiv faoliyat ma'naviy-axloqiy o'sishning muhim omili sifatida namoyon bo'ldi. Statistik tahlillar konstruktivistik model samaradorligining ilmiy asoslanganligini tasdiqladi ($p < 0,05$).

Shu asosda o'zbek tili darslarida muammoli vaziyatlar va axloqiy dilemmalardan muntazam foydalanish; interfaol va hamkorlikka asoslangan metodlarni keng joriy etish; refleksiv tahlilni har bir darsning ajralmas qismiga aylantirish; ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini takomillashtirish amaliy tavsiyalari ishlab chiqildi

Xulosa qilib aytganda, konstruktivistik yondashuv o'zbek tili ta'limini shaxsga yo'naltirilgan, interfaol va tarbiyaviy jihatdan samarali tizimga aylantirish imkonini beradi.

Mazkur modelni boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida qo'llash istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, Jean (1970). *Genetic Epistemology*. New York: Columbia University Press.
2. Vygotsky, Lev S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Bruner, Jerome S. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Dewey, John (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
5. Zimnyaya, Irina A. (2004). Klyuchevye kompetentsii kak rezultat obrazovaniya. Moskva: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (2023). Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Toshkent.
8. Yo'ldoshev, J., & Usmonov, S. (2016). *Pedagogik texnologiya asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
9. Azizxo'jayeva, N. N. (2018). *Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Tolipov, O'. Q., & Usmonboyeva, M. (2019). *Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: Tafakkur Bo'stoni.